

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

THE PARADIGM OF PROPERTY RIGHTS IN ISLAMIC LAW

Amonov Zavqiddin

Independent Researcher

Tashkent State University of Law,

PhD in Law

Abstract. This article examines the concept of property rights in Islamic law, its fundamental principles and legal-theological foundations. In Sharia, the norms governing ownership originate from the Qur'an and the Sunnah, where property is viewed as a blessing granted by God, while humans are regarded not as absolute owners but as trustees and managers of that property. Thus, property rights in Islamic law encompass not only economic and legal norms but also moral and ethical obligations. The article analyzes the origin of property, rules of its use, transfer of ownership, the notions of halal and haram, and provides a comparative legal discussion with modern civil law systems.

Keywords: Islamic law, Sharia, property rights, Qur'an, Sunnah, principles of ownership, ethical-economic norms, trust (amanah), possession, management.

ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI

Amonov Zavqiddin

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom huquqida mulkiy huquqlar tushunchasi, uning manbalari va mazmuni tahlil qilinadi. Shariatda mulk borasidagi asosiy tamoyillar Qur'on va Sunnatga tayangan holda shakllanib, insonning mulk ustidan mutlaq egalik qilmasligi, balki uni Alloh tomonidan berilgan omonat sifatida boshqarishi kerakligi e'tirof etiladi. Islom huquqida mulkiy huquqlar nafaqat iqtisodiy va yuridik munosabatlarni, balki axloqiy-etik qoidalarni ham o'z ichiga oladi. Maqolada mulkning kelib chiqishi, undan foydalanish me'yorlari, mulkning o'tishi, halol va harom konsepsiyasi, shuningdek, zamonaviy fuqarolik huquqi bilan o'xshash va farqli jihatlar solishtirma-huquqiy tahlil asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: islom huquqi, shariat, mulkiy huquqlar, Qur'on, Sunnat, mulk tamoyillari, iqtisodiy-axloqiy me'yorlar, omonat, egalik, boshqaruv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N60>

Islom huquqi – shariat – musulmon jamiyatida huquqiy va ma'naviy me'yorlarning uyg'un tarzda uyqashgan mukammal tizimi hisoblanadi. Uning tarkibida mulkiy huquqlar masalasi alohida o'rin egallaydi. Chunki moddiy boylik, uning boshqarilishi va taqsimlanishi inson hayotining ajralmas qismi hisoblanib, diniy nuqtai nazardan ham, ijtimoiy munosabatlar nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Qur'on va sunnatda mulkiy huquqlarga oid qator prinsiplar ilgari surilgan bo'lib, ular orqali mulkning kelib chiqishi, undan foydalanish shartlari va boshqa shaxslarga o'tishi belgilangan. Musulmon huquqshunoslari asarlarida mulk Allohning ne'mati sifatida qaraladi, inson esa faqat uning mudiri va boshqaruvchisi maqomida faoliyat ko'rsatadi. Shu jihatdan,

islom huquqida mulkiy huquqlar konsepsiyasi nafaqat moddiy jihatni, balki axloqiy-etik mezonlarni ham qamrab oladi.

Islom huquqining ilk manbai Qur'on bo'lib, u odamlarning ashyolarga bo'lgan munosabatiga katta e'tibor qaratgan [1]. Shu bilan birga, Qur'onning o'zi "mulk" tushunchasini aniq e'lon qilmaydi. Bu kategoriyani "mansubiyat" (tegishlik) orqali anglashga harakat qilamiz. Qur'onda "milk" va "mal" atamalari qo'llaniladi. "Milk" so'zi mulkni anglatrsa, "mal" esa an'anaviy ravishda "mol-mulk" ma'nosini ifodalaydi.

Ko'rinadiki, "mal" mulk obyekti sifatida ham, boshqa jihatdan ham namoyon bo'ladi. Qur'on mazmunidan ma'lum bo'ladiki, "mal" foydalanish obyekti hamdir. Shu narsani aytish mumkinmiki, biror moddiy ne'matdan foydalanish orqali u musulmonning mulkiga aylanadi? Bu savolga bir ma'noli javob berish qiyin.

Aslida, mulkda ilohiy tamoyil yotadi. Qur'onning "Al-An'om" (Chorva hayvonlari) surasi, 6-sura, 13-oyatda shunday deyiladi: "Osmon va Yerdagi tun va kunduzda orom topgan barcha narsalar Unikidir; U eshituvchi va biluvchidir!".

Foydalanish esa narsaning foydali xususiyatlaridan olish harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Masalan, 6:142 oyatida: "(U) ayrim chorvalarni yuk tashish uchun va ba'zilarini yeyish uchun yaratdi", – deyiladi.

Shunday qilib, Qur'on inson ehtiyojlarini qondirish yo'llarini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, "mal" – mol-mulk tushunchasi undan maqsadli foydalanish bilan uzviy bog'liq, ya'ni insonning biror moddiy ne'matga ehtiyoji uning ishlatilishini zarur qiladi.

6:141 oyatida shunday deyiladi: "U (Alloh) tokzorlarni (ayrimlarini) yerda ko'targichlar bilan (o'stiriladigan qilib), ba'zilarini esa yerda yoyilib o'sadigan qilib yaratdi, xurmo daraxtlarini va turli turdagi ekinlarni, zaytun va anorlarni (yaratdi), ular o'xshash ham, o'xshamas ham. Ular meva berganida mevasidan yenglar va hosil yig'ish paytida haqini beringlar (ya'ni zakotini), lekin isrof qilmanglar. Zotan, Alloh isrofchilarni xo'sh ko'rmaydi!".

Bu yerda isroforlik moddiy narsadan foydalanishda chegaralarni belgilovchi mezon sifatida ko'rsatiladi.

Mulk tushunchasi o'ljalariga (g'animatlarga) nisbatan ham, ular ustidan mulkiy huquq o'rnatish orqali izohlanadi. Qur'onning 8-surasi, 1-oyatida (Abu Adelning sharhiga ko'ra) shunday deyilgan:

"O'ljalar Allohga tegishli, va U qanday qilib taqsimlashni O'zi belgilaydi, Payg'ambarga esa Allohning buyrug'iga muvofiq ularni taqsimlash vakolati berilgan".

Bu juda keng va aniq emas deb baholanadigan qoidadir. Qur'on jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish manbai sifatida turli talqinlarning yuzaga kelishini va umuman islom huquqi doktrinasining shakllanishini vujudga keltirdi.

"Mulk" tushunchasini L. Syukiyaynen asarlarida ham ko'rib chiqish mumkin. Uning "Musulmon huquqi. Nazariy va amaliy masalalar" asarida [2], shuningdek "Islom mulk huquqi: diniy postulatlarini yuridik tushuntirish" maqolasida [3] bu masala yoritilgan.

L. Syukiyaynen ham islom huquqida "mal" tushunchasining ahamiyatini qayd etadi va Qur'onda bu atama kamida 90-marta zikr qilinishini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, u mulkni asosan hanafiy mazhabi nuqtai nazaridan tahlil qiladi, bu esa, bizning fikrimizcha, to'liq tasavvurni berish uchun yetarli emas. Olim shunday yozadi: "Musulmonlar mol-mulkka munosabatda Allohning Yerdagi xalifalari sifatida harakat qilishadi, ya'ni Uning buyrug'iga binoan tasarruf etadilar". L. Syukiyaynenning islom huquqi bozor qiymatlariga yo'naltirilgan

degan qarashini esa biz biroz shoshma-shosharroq deb baholaymiz. Aslida, huquqshunos faqat islom mulk institutini tasvirlab bergan, uning xususida shaxsiy munosabat bildirmagan. Muallif ta'kidlaydiki, mulk masalasida islomiy va yevropalik huquqiy madaniyat ko'pincha bir-birini to'ldiradi yoki samarali hamkorlik qiladi [4].

Bizningcha ham mulk huquqini islom huquqida tahlil qilishda har qanday huquqiy munosabatlar singari, obyekt, subyekt va mazmunni ajratib ko'rsatish kerak.

Mulk subyekti masalasi ilmda boshqa masalalarga nisbatan kam bahsli hisoblanadi. Islom huquqida mulk huquqining subyektlari asosan musulmonlar deb e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, haqiqiy musulmon o'z diniy qarashlariga tayanadigan holda muayyan tarzda harakat qilishi kerak. Biz ko'p hollarda quyidagi formula orqali qonun normalarining ishlashini ko'ramiz: "Alloh siz qilgan ishlaringizni bilguvchidir". Odatda, bu formula mukofot (gunohlarni afv etish) va'dasi yoki jazo tahdidi bilan bog'lanib, Qur'on hukmlarini bajarishni ta'minlaydi.

Biroq islom huquqi mulk egasi sifatida g'ayrimusulmonlarni ham tan oladi. Qur'onning 3-surasi, 116-oyatida shunday deyilgan: "Kofir bo'lganlarning mollari ham, farzandlari ham Alloh oldida ularga hech qanday yordam bermaydi. Ular Do'zax ahlidirlar va u yerda abadiy qoladilar". Ya'ni, kofirlar ham hayoti davomida mulkka egalik qilishi mumkin. Biroq islom huquqi bunday munosabatlarga yuridik jihatdan katta ahamiyat bermaydi, ular ko'pincha shariat doirasi tashqarisida qoladi.

Bundan farqli ravishda, anglosakson huquq tizimi mulk egasini alohida imtiyozli shaxs sifatida ko'radi.

V. F. Baranov mulkning sinfiy tabiatini ta'kidlab, uni "yer egalari sinfining huquqi" [5] deb ataydi. Bu fikrga qo'shilish mumkin, chunki Angliya ashyoviy huquqining qator institutlari aynan feodal guruh yoki yer egalari manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilgan. Masalan, trast instituti (ishonchli mulk) va undan oldinroq paydo bo'lgan "use" tizimi shu maqsadga qaratilgan.

Shariatda mulk obyekt o'ziga xos hisoblanadi. U turli mazhablarga qarab turlicha izohlanadi. Mulk tushunchasi eng ko'p hanafiy mazhabida rivojlangani ma'lum, u sunniy mazhablar orasida birinchi hisoblanadi. Islom ulamolari musulmon mulkida bo'lishi mumkin bo'lgan ashyolar kategoriyasiga katta e'tibor qaratgan. Shuning uchun doktrinada ularni turli yo'llar bilan klassifikatsiya qilish urinishlari kuzatiladi. Masalan, V.G.Grafskiy barcha ashyolarni quyidagicha ajratadi: "halol ashyolar" – havo, sahro, dengiz, masjidlar; "harom ashyolar" – masalan, harom kitoblar, cho'chqa go'shti, aroq [6].

Bizningcha, bu klassifikatsiya huquqiy jihatdan ancha noaniqdir. Aslida, "halol" va "harom" degan atamalar to'g'ri tanlanmagan, chunki bu sifatlar ko'proq diniy qarashlarga tegishli bo'lib, huquqiy jihatdan faqat musulmonga harom bo'lgan narsalarni legalizatsiya qilishdan bosh tortishga asos sifatida xizmat qiladi, xolos.

Bizning fikrimizcha, musulmon huquqida mulk huquqi obyektining quyidagi tasnifini taklif qilish zarur.

1. Barcha mulk obyekt sifatida qaraladigan narsalarni musulmon huquqi tomonidan tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan narsalarga ajratish mumkin. Qur'on va undan keyin turli shariat izohlari ba'zi obyektlar turlarini belgilab qo'yganki, ular nafaqat mo'minlar uchun qiymatga ega emas, balki ular uchun taqiqlangan ham hisoblanadi.

2. Mulk obyektlarini muomala qobiliyati darajasiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin. Birinchidan, musulmon shaxs mulk sifatida egallay olmaydigan, ammo undan

foydalanish huquqiga ega bo'lgan obyektlar mavjud. Bu obyektlar Allohga tegishli bo'lib, barcha musulmonlar ulardan teng darajada foydalanish huquqiga egadirlar. Havo, dengiz, sahro, masjidlar, suv yo'llari insonlarga Alloh tomonidan berilgan. Qur'onning 2-surasi, 29-oyatida shunday deyiladi: "U – sizlar uchun yerda mavjud bo'lgan barcha narsani yaratgan zot, keyin osmonga yuzlanib, uni yetti qatlamli qilib qo'ydi. U har bir narsadan xabardordir".

Bir tomondan, bu obyektlar Allohning yer yuzidagi xalifalari sifatida barcha insonlarga tegishlidir, ikkinchi tomondan esa hech kim ularni o'z mulki deb hisoblay olmaydi.

Huquqiy nuqtai nazardan, bu obyektlar muomala qobiliyatiga ega emas, ya'ni ular bir shaxsdan ikkinchisiga mulk sifatida o'tmaydi. Ular ajralmas hisoblanadi. Biroq, ko'p hollarda havo, dengiz, sahro va hokazolarning pulda bahosi yo'q, qiymatlantirib bo'lmaydi, lekin ular har qanday subyekt uchun – davlat, ummat yoki shaxs uchun, musulmon bo'ladimi yoki g'ayrimusulmon – juda qimmatli hisoblanadi.

Ikkinchidan, musulmon kishi egallay olmaydigan va foydalanishi taqiqlangan obyektlar mavjud. Bunga cho'chqa go'shti, alkohol, taqiqlangan kitoblar, qimor o'yinlari uchun mo'ljallangan jihozlar kiradi. Qur'onning "Moida" surasi 3-oyatida mo'minlarga shunday deyiladi: "Sizlarga harom qilindi: o'lgan hayvon go'shti, qon, cho'chqa go'shti va Allohning nomi zikr qilinmagan (yoki Alloh yo'lida so'yilmagan) hayvon go'shti, bo'g'ilib o'lgan, urib o'ldirilgan, qulagan, sug'urib o'ldirilgan, yovvoyi hayvon yirtib ketgan (faqatgina vaqtida so'yilgani mustasno), tosh ustida so'yilgan, baxt qidiruv uchun qo'llanilgan (tirnoq) qilinlar ekan. Bular fosiqlikdir".

5-sura, 90-oyatida esa shunday deyiladi: "Ey imon keltirganlar! Darhaqiqat, mast qiluvchi ichimliklar, qimor, tosh haykallar (butlar) va baxt tikish uchun o'qlar – bular shaytonning nayranglaridir. Ulardan uzoq bo'linglar, shoyadki najot topursizlar". Qur'on va keyinchalik ijmo qimorni keng ma'noda talqin qiladi. Shu jumladan, ruletka, kartalar, nard, loto va lotereyalar, sport musobaqalariga tikilgan pullar, nard kabi o'yinlar ham kiradi. Ularni birlashtiradigan muhim jihat shundaki, ulardagi daromad tasodifiy bo'lib, faqat omadga bog'liqdir. Bugungi kunda qimorning turlari yangi qimor avtomatlari, kazino kabilar bilan ham to'ldirilishi mumkin.

"91. Darhaqiqat, shayton mast qiluvchi ichimliklar va qimor o'yinlari orqali oralaringizda adovat va nafrat uyg'otmoqchi hamda sizlarni Allohni eslashdan va namozdan to'smoqchi. Shuning uchun ulardan uzoq bo'linglar" – mazkur oyat ushbu taqiqning sababini ochib beradi. Asosiy sabab shundaki, alkohol va qimor, birinchi navbatda, insonni ibodatdan chalg'itadigan bema'ni vaqt o'tkazish hisoblanadi, ikkinchidan esa adovat va nafratga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, barcha boshqa obyektlar borki, ularni ham musulmon, ham boshqa shaxs mulk sifatida egallashi mumkin. Bu inson hukmronligiga bo'ysunuvchi, foydalanish taqiqlanmagan va muomaladan chiqarilmagan moddiy dunyodagi barcha narsalardir. Bunday narsalar to'liq muomala qobiliyatiga ega, ular bir shaxsdan boshqa shaxsga erkin o'tishi mumkin.

Mulk haqida Raymon Leje ham so'z yuritadi, u uni "Ilohiy tuhfa, muqaddas xususiyatga ega" deb ta'riflaydi [7]. Shu bilan birga u "xaraj mulki" (bu yerda xaraj soliqqa oid tushuncha) hamda "vaqf"ni ta'kidlaydi. Ushbu ikki turdagi mulk egalari turli hajmda foydalanish huquqiga egadirlar, biroq birinchi holda davlat mulki nazarda tutiladi, ikkinchi holda esa Alloh mulki.

Angliya huquqida mulk huquqi obyekti ko'p hollarda uning ilohiy manbasiga asoslanadi. Faqat shariatdan farqli ravishda, u yerda ilohiylik manbai Alloh emas, balki qirol hokimiyati hisoblanadi. Aynan qirol davlat hududidagi barcha mulkning oliy egasi deb e'lon qilingan.

Angliya huquqiy va falsafiy maktabining vakili Jon Lokk "Ikki risola to'g'risida" asarining V bobida mulk huquqining huquqiy tabiatini va uning davlat boshqaruvi tizimidagi o'rnini prakseologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakat qiladi[8]. O'sha zamonlardagi prakseologiya insonning hayotiy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishdagi faoliyatini o'rganuvchi ta'limot sifatida qaralar edi. Mulk o'sha davrda inson erkinligini amalga oshirish vositasi sifatida ko'rilgan.

"Yer va unda mavjud barcha narsalar insonlarning hayotini ta'minlash va yengillashtirish uchun berilgandir", deb yozadi J. Lokk. Shunday qilib, u moddiy boylikning maqsadga muvofiqligini, uning kimningdir mulki sifatida qaralishini asoslaydi.

Bir tomondan, muallif shunday deydi: "Hech kimda ilk boshdan xususiy mulk yo'q", ikkinchi tomondan esa "har bir inson o'z shaxsiga tegishli biror mulkka egadir, unga o'zidan boshqa hech kim huquqi yo'q. Biz shuni aytishimiz mumkinki, uning tanasi va qo'llari mehnati qat'iy ma'noda uning o'zidir. Shu bois inson tabiat yaratgan va saqlab turgan holatdan nimanidir ajratib olib, unga o'z mehnatini qo'shsa, uni o'z shaxsiy mulkiga aylantiradi" [9].

Bunday pozitsiya moddiy huquqni jismoniy shaxsning huquqsubyektligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga urinish sifatida talqin qilinishi mumkin. Faqatgina shaxs o'z harakatlarini muayyan moddiy boylik bilan birlashtirgan taqdirdagina uning mulkdor sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Lokk asarlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, u mulk huquqiga subyektiv yondashadi. Ya'ni, faqat muayyan mehnat harakatlari qo'llanilgan taqdirdagina, aniq bir shaxsda muayyan mol-mulkka nisbatan mulk huquqi paydo bo'lishi mumkin. Albatta, bu zamonaviy mulk huquqi konsepsiyasiga mos kelmaydi, chunki bugungi kunda mulkiy huquq hatto biron harakatsiz ham vujudga kelishi mumkin, masalan, voyaga yetmagan (ba'zan hatto yaqinda tug'ilgan) bolaga meros o'tishi kabi holatlarda. Shu bilan birga, biz ushbu hodisaning subyektiv xususiyatini tan olamiz.

Har qanday huquqiy munosabat kabi, mulk huquqi ham o'z tuzilishida uchta elementga bo'linadi: huquqiy munosabat subyekti, huquqiy munosabat obyekti va uning mazmuni. Faqatgina subyekt mavjud bo'lganda – bu jismoniy shaxs bo'ladimi yoki jamoa bo'ladimi – bunday huquqiy munosabat yuzaga kelishi haqida gapirish mumkin. Ammo J. Lokk mulkning yuzaga kelish imkoniyatini muayyan harakatlar bilan bog'laydi.

Biz esa, hayotiy misollardan kelib chiqqan holda, quyidagini ta'kidlaymiz: harakatni amalga oshirish doimo zarur emas. "Mening otim chopgan o't mening mulkimga aylanadi, hatto hech kimning ruxsati yoki buyrug'i bo'lmasa ham", – deydi J. Lokk misol sifatida. Lekin huquqshunoslik nuqtai nazaridan hayvon hech qachon huquq subyekti sifatida e'tirof etilmagan. Shuning uchun, aslida, bu yerda ham bir qarama-qarshilik ko'rinadi, chunki mulkdorning o'zi hech qanday harakat qilmagan bo'ladi.

O'z konsepsiyasini J. Lokk "tabiiy qonun" bilan izohlaydi. U shunday yozadi: "Inson o'z mehnati orqali hayoti ehtiyojlari uchun foydalana oladigan darajadagi molni mulk qilib olish huquqiga egadir, agar u mol vayron bo'lib ketmasidan avval. Ammo shu haddan oshgan narsa uning ulushidan ortiqdir va boshqalarga tegishli bo'ladi".

J. Lokk ingliz huquq tizimida mulk huquqini egallashning ayrim yo'llarini ham tahlil qiladi. "35. To'g'ri, Angliyada yoki boshqa biror davlatda, agar u yerda umumiy yer bo'lsa va hukumat ko'p odamlarni birlashtirgan bo'lsa, ularda pul bor va savdo bilan shug'ullanishadigan bo'lsa, hech kim barcha sheriklarning roziligisiz yerdan bir qismini o'ziga olib, o'rab qo'yish yoki o'zlashtirish huquqiga ega emas, chunki bu yer umumiy mulk hisoblanadi, ya'ni mamlakat qonuni asosida, va uni buzib bo'lmaydi. Va garchi bu yer ayrim odamlar uchun umumiy hisoblansa-da, butun insoniyat uchun emas, balki mazkur mamlakat yoki jamoat uchun umumiy mulkdir", – deb yozadi J. Lokk.

"Olam Alloh tomonidan barcha insonlarga birdek berilgan", – degan Lokkning bunday xulosalaridan kelib chiqqan holda, musulmon huquqi va ingliz huquqida mulk tushunchasi mutlaqo qarama-qarshi, deb aytish xato bo'ladi. Bu fikr islom huquqshunoslarining xulosalariga o'xshaydi. Qur'onning 16-surasi, 53-oyatida shunday deyiladi: "Sizlardagi barcha ne'matlar Allohdan".

Biroq barcha huquqshunoslar bunday qarashlarni qo'llab-quvvatlamagan. Masalan, Lyudvig fon Mizes mulkning ilohiy xususiyatini rad etgan, aksincha, "xususiy mulk – bu inson tomonidan yaratilgan mexanizm", deb hisoblagan [10]. Prakseologiya ta'limotining tarafdori sifatida u mulkning paydo bo'lishini insonning o'z kuchi bilan avval hech kimga tegishli bo'lmagan narsani egallab olishiga bog'lagan.

Angliya huquqi o'ziga xos xususiyatlarga boy bo'lib, mulk institutini o'ziga xos qiladi. "Bo'linishli mulk" konsepsiyasi ko'pchilik huquq tizimlarida analogga ega emas. Rene David ham "Zamonaviy huquq tizimlarining asoslari" nomli asarida ingliz mulk huquqining ayrim jihatlariga urg'u qo'ygan [11]. U, avvalo, feodalizm davrida Angliya aholisini o'z qo'riqchisi atrofida uyushishga majbur qilgan jihatni ko'rsatadi. Bu davrda qirol marhamat qilgan yerlar qat'iy hisobga olingan va harbiy intizom ruhida tashkil etilgan tizim orqali taqsimlangan.

Angliya huquqiy tizimi mulk huquqining yuridik ma'nosi va mazmunini egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari prizmasi orqali ko'radi. Xususan, o'sha davrda Angliyada "tenures" konsepsiyasi keng qo'llanilgan edi. Angliya huquqida qo'shma va umumiy mulkni farqlash amalga oshiriladi. "Joint tenancy" va "tenancy in common" (qo'shma egalik va umumiy egalik) xususiy va umumiy mulk shakllarini namoyon qiladi. Biroq hamma ham bu tuzilmalarni shu tarzda qabul qilmaydi. Masalan, fransuz olimlaridan Rene David qo'shma mulk tushunchasiga nisbatan samimiy hayratini bildirgan, chunki bunday tuzilma fransuz huquqiga ma'lum emas edi va u uni ishonchli boshqaruv (doveritelnaya sobstvennost) bilan qiyoslashga uringan, bunda u sosobstvennik sifatida boshqaruvchilarni ko'rgan. Biz esa bu nuqtai nazarni anchagina begona deb hisoblaymiz.

Qo'shma mulk, haqiqatdan ham, mulkdorlardan birortasi vafot etganida uning ishtirok etish huquqi meros qilinishini nazarda tutmaydi, balki agar vafot etgan shaxsning merosxo'rlari o'z huquqini talab qilmasa, qolgan mulkdorlarning ulushlari oshadi. Biroq u mulkdorning ulushini ajratib olish (hissadan ajralib chiqish) imkonini ham taqdim etadi.

Shunday qilib, amalda qo'shma mulkda ham meros qilish, ham ulushni tasarruf etish mumkin. Har ikki huquq tizimi – ham musulmon, ham ingliz huquqi – mulkdorni o'z mulk huquqini isbotlaydigan dalillarni taqdim etish sharti bilan tan olish konsepsiyasini qabul qilgan. Shuningdek, mulkiy huquqlarning vujudga kelishining asosi sifatida meros ham umumiy qiymat sifatida e'tirof etiladi. Masalan, L.A. Berdegulova merosni meros qoldiruvchiga qonuniy

asosda tegishli bo'lgan va universal huquqiy vorislik tartibida o'tadigan muayyan mol-mulk deb tushuntiradi[12].

Birlashtiruvchi mezon sifatida yer ham alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Yer har ikki huquq tizimida ham o'ziga xos ne'mat sifatida ko'riladi va ko'pincha uni markaziy o'ringa qo'yishadi.

Angliya huquqida moddiy huquqlarni amalga oshirishning o'ziga xos shakllari ham ajralib turadi – frigold va kopigold (ya'ni erkin va erkin bo'lmagan yer egaligi). Ularning asosiy farqi subyektlar tarkibida emas, balki kopigold egalari sud himoyasini talab qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganida ko'ringan. To'g'ri, bu holat faqat XV asrgacha saqlangan.

Yuqorida bayon qilinganlarni xulosa qilar ekanmiz, aytish joizki, musulmon huquqi va ingliz huquqi o'rtasida diniy, tarixiy, axloqiy va etik jihatlar bilan izohlanadigan ochiq va sezilarli farqlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, mulk masalalarida ma'lum bir ta'rifiy yaqinlikni kuzatish mumkin. Har ikki huquq tizimida mulk muayyan munosabat sifatida tasvirlanadi, uning mazmuni esa muayyan shaxsning biror narsaga nisbatan qonuniy tartibda egalik qilish, undan foydalanish va uning kelgusi huquqiy taqdirini belgilash imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Islom huquqida mulkiy huquqlar mukammal va uyg'un tizim sifatida shakllangan bo'lib, uning negizida moddiy boylikning ilohiy manbasi va insonning unga nisbatan mas'uliyatli munosabati yotadi. Mulk Allohning ne'mati sifatida qaralishi, inson esa uning vaqtinchalik boshqaruvchisi sifatida e'tirof etilishi mulkiy munosabatlarga o'ziga xos ma'naviy va etik mezonlarni joriy qiladi.

Islom huquqi mulkiy huquqlarning turli shakllarini, ularning hududiy, madaniy va tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq holda rivojlanishini tartibga solishda o'ziga xos yo'l tutadi. Qur'on va sunnatda belgilangan qoidalar mulkiy munosabatlarni adolat, tenglik va barqarorlik tamoyillari asosida yo'naltirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, musulmon huquqida mulkiy huquqlar nafaqat huquqiy munosabatlarning zohiriy jihatini, balki insonning hayotiy falsafasini, jamiyatga bo'lgan munosabatini ham aks ettiradi. Bu esa islom huquqining mulkiy huquqlarga doir qoidalarini jahon huquqiy tafakkuri tizimida o'ziga xos va o'rganishga arziydigan fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Коран: перевод смыслов и комментарии / пер. с араб. Э. Р. Кулиева. Изд-е 9-е, стер. – М.: Эксмо, 2013. – 807 с.
2. Сюкияйнен Л. Мусульманское право. Вопросы теории и практики. – М.: Наука, 1986. – 239 с.
3. Сюкияйнен Л. Мусульманское право собственности: юридическое осмысление религиозных постулатов // Отечественные записки. 2004. – № 6 (21). – С. 43-48.
4. Сюкияйнен Л. Мусульманское право собственности: юридическое осмысление религиозных постулатов // Отечественные записки. 2004. – № 6 (21). – С. 47.
5. Баранов В.Ф. Возникновение и развитие английского общего права в XII-XVII вв.: дисс. ... к.ю.н. – М., 2012. – 156 с.
6. Графский В.Г. Всеобщая история права и государства: учебник для вузов. М.: Норма, 2002. – 251 с.
7. Леже Р. Великие правовые системы современности: сравнительно-правовой подход / пер. с фр. А. В. Грядов.
8. Изд-е 3-е, перераб. – М.: Волтерс Клувер, 2011. – 256 с.
9. Локк Дж. Два трактата о правлении // Локк Дж. Собр. соч.: в 3-х т. – М.: Мысль, 1988. Т. 3. – С. 276.

10. Локк Дж. Два трактата о правлении // Локк Дж. Собр. соч.: в 3-х т. – М.: Мысль, 1988. Т. 3. – С. 276–289.
11. Мизес Л. Человеческая деятельность: трактат по экономической теории. Изд-е 2-е, испр. Челябинск: Социум, 2005. – С. 640-641.
12. Давид Р., Жоффре-Спинози К. Основные правовые системы современности = Les grands systemes de droit contemporains / пер. с фр. В. А. Туманова. – М.: Международные отношения, 1998. – 228 с.
13. Бердегулова Л.А. Ответственность неделиктоспособного наследника по долгам наследодателя // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2014. – № 1. – С. 29-31.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).